

BOLALARNING RAQAMLI DUNYODAGI HUQUQLARI: INTERNET XAVFSIZLIGI VA CHEGARALAR

Jamilova Ozoda Komilovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy-odil sudlov fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif zamonaviy dunyoda bolalarning axborot xavfsizligiga doir huquqlarining milliy hamda xalqaro huquqiy asoslarini tahlil qilgan. Ko'rsatilgan hujjatlardagi ijobiy namunalarni batafsil yoritib berib, har birining o'ziga xos jihatlarini ochib bergan. Bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash masalasida oiladan tortib davlatlararo miqyosda hamkorlik g'oyasi ilgari surib, asoslab bergan.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, bolaning axborot huquqi, raqamli muhit, axborot xavfsizligi, ommaviy axborot vositalari.

KIRISH

Axborot asrida xavfsizlik masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Bugungi kunda nafaqat bolalar, balki kattalar ham yirik kiberjinoyatlarning qurboniga aylanmoqda. Shu o'rinda tan olish kerakki, texnologiyaning o'zi vayronkor emas; hammaga gap uni qanday qo'llashdadir.¹ Undan noto'g'ri va umum manfaatlariga qarshi foydalanish esa jamiyatda ishonchsizlik muhitining kuchayishiga olib kelmoqda. Shunday murakkab va ziddiyatli vaziyatda aholining hali tajribasiz va yosh qatlamini tashkil qiluvchi bolalar himoyasi alohida e'tiborni talab qiladi. Ayniqsa, bolalarning axborot sohasida huquqlarini himoya qilish masalasi jahon miqyosida dolzarb bo'lib, uni samarali tashkil etishga alohida urg'u berilishi zarur.

¹ Guest Columnists. (2023, June 16). Ensure that children are known, loved, protected in the digital age. The Daily Monitor. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a68GF-2GM1-JDJN-64F7-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>.
SJIF: 5.051

Quyida biz ushbu masalaga xalqaro maydonda hamda O'zbekistonda qanday yondashilayotgani, mavjud huquqiy asoslar va bolalar xavfsizligini to'laqonli ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar haqida so'z yuritamiz.

Metodlar

Ushbu maqolada mavzuni yoritib berish uchun ilmiy bilishning qiyosiy-huquqiy, tizimli, kompleks o'rganish metodlaridan va milliy hamda xalqaro tajribadan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

So'nggi yillarda bolalarning raqamli makondagi huquqlari buzilishi, umuman olganda, axborot sohasidagi huquqbuzarliklar sezilarli darajada avj olib, bu boradagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan avvaldan mavjud huquqiy va institutsional mexanizmlarning zamonga moslashuvini talab etdi. Bunga yorqin misol sifatida, 1978-yilda Polsha tomonidan ilgari surilgan va 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan hamda bolalarning bir qancha asosiy huquqlarini o'z ichiga olgan BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi"ni va unga 2021-yilda ishlangan Umumiy sharhni keltirish mumkin. Mazkur konvensiya uni ratifikatsiya qilgan davlatlar uchun barcha hujjatlar orasida eng asosiy va ustuvor hisoblanadi. Jumladan, konvensiyaning 13-, 16- va 17-moddalari bolalarning axborot sohasidagi huquqlarini bevosita belgilab beradi. Xususan, 13-modda bolalarning so'z erkinligi huquqini kafolatlaydi. Unga ko'ra, har bir bola har qanday turdagi axborot va g'oyalarni, chegarasidan qat'i nazar, og'zaki, yozma yoki bosma shaklda, san'at asari ko'rinishida yoki o'z tanloviga ko'ra boshqa vositalar orqali izlash, olish va tarqatish huquqiga egadir. Albatta, bu — bolaga faqat "bola" maqomiga ega ekani uchun har qanday axborotni tarqatishga to'liq erkinlik beriladi, degani emas. Unga berilgan bu huquq boshqa shaxslarning

huquqlari va sha'ni, shuningdek davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini himoya qilish doirasida qonuniy tarzda cheklanishi mumkin. Shuningdek, Konvensiyaning 16-moddasiga muvofiq, hech bir bola uning shaxsiy hayoti, oilaviy hayoti, uy-joy daxlsizligi yoki yozishmalari maxfiyligiga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga zid ravishda aralashish, yoxud sha'ni va obro'siga noqonuniy tajovuz qilish holatlariga duch kelmasligi kerak. Har bir bola bunday tajovuzlardan qonuniy asoslarda himoyalanih huquqiga ega. Bundan tashqari, bolalarning ommaviy axborot vositalaridagi ishtirokiga oid umumiy qoidalar 17-moddada bayon etilgan bo'lib, unda ishtirokchi davlatlar OAVning bolalar hayotidagi muhim rolini e'tirof etishi, shuningdek bolalarga turli milliy va xalqaro manbalardan, axborot va materiallardan foydalanish imkoniyatini yaratishi belgilab qo'yilgan.²

2021-yilda BMT tomonidan "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ga qo'shimcha ravishda Bolalarning raqamli muhitdagi huquqlari bo'yicha Umumiy sharh ishlab chiqilgan. Ushbu hujjat 1989-yilda qabul qilingan Konvensiyaning bugungi raqamli hayotga qanday tatbiq etilishi kerakligini aniqlashtirib beradi. Mazkur Umumiy sharhda bolalarning raqamli makondagi huquqlari va manfaatlarini ta'minlash borasida ishtirokchi-davlatlarga bir qator aniq vazifalar yuklangan. Xususan, davlatlar bolalarni raqamli muhitda zo'ravonlikning barcha tan olingan va yangi paydo bo'layotgan shakllaridan, xavf-xatarlardan himoya qilish uchun mustahkam qonunchilik, me'yoriy va institutsional asoslarni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqishlari, yangilashlari hamda amalda qo'llashlari lozim.

Bunday xavf-xatarlarga quyidagilar kiradi:

- jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik;

² Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya <https://lex.uz/docs/-2595913>.
SJIF: 5.051

- beparvolik yoki yomon munosabat;
- ekspluatatsiya, jumladan jinsiy ekspluatatsiya;
- bolalar savdosi;
- genderga asoslangan zoʻravonlik;
- kibertajovuz va kiberhujumlar;
- axborot urushlari.

Shuningdek, ishtirokchi-davlatlar bolalarning yoshi va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda xavfsizlik va himoya choralarini belgilashlari zarur. Barcha choralar qonuniylik, zaruriylik va mutanosiblik prinsiplari asosida amalga oshirilishi shart. Umumiy sharhda hattoki bolaning tugʻilishi bilanoq roʻyxatga olinishi huquqi ham alohida taʼkidlangan. Ishtirokchi-davlatlar sogʻliqni saqlash, taʼlim va farovonlik kabi xizmatlardan foydalanishni osonlashtirish maqsadida yangi tugʻilgan chaqaloqlarning milliy hokimiyat organlari tomonidan rasmiy ravishda roʻyxatga olinishi va tan olinishi uchun raqamli identifikatsiya tizimlaridan foydalanishni ragʻbatlantirishlari kerakligi koʻrsatilgan. Bunda ayniqsa chekka hududlardagi bolalar, qochoq va migrant bolalar hamda xavf ostidagi bolalar uchun roʻyxatga olish imkoniyatini kengaytirish zarur. Shu kabi maqsadlarda zamonaviy texnologiyalar, jumladan mobil roʻyxatga olish birliklaridan foydalanish tavsiya etilgan. Shuningdek, raqamli identifikatsiya tizimlari toʻliq joriy etilmaguncha, tugʻilgan bolalarni hisobga olish boʻyicha muqobil choralar koʻrilishi lozimligi alohida urgʻu bilan qayd etilgan.³

Yevropada Yevropa Kengashi tomonidan 2018-yilda Vazirlar Qoʻmitasining aʼzo davlatlarga bolalarning raqamli muhitdagi huquqlarini hurmat qilish, himoya

³ Bolalarning raqamli muhitdagi huquqlari boʻyicha Umumiy sharh
(<https://www.unicef.org/bulgaria/en/media/10596/file>).

qilish va ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalari ham ishlab chiqilgan. Unda keltirilishicha, raqamli muhitga kirish va undan foydalanish bolalarning huquqlari va asosiy erkinliklarini, ularning jamiyatda to'liq ishtirokini, ta'lim olishini, shuningdek oilaviy va ijtimoiy munosabatlarini saqlab qolishini ta'minlaydi.⁴ Bolalar raqamli muhitda axborot yaratuvchi va tarqatuvchi sifatida, o'z fikrini ifoda etish erkinligi huquqini qanday amalga oshirish mumkinligi, boshqa shaxslarning, jumladan boshqa bolalarning huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish haqida a'zo davlatlar tomonidan ta'lim dasturlari orqali xabardor qilinishi lozim. Ushbu ta'lim dasturlarida qonuniy cheklovlar — intellektual mulk huquqlarining poymol etilishi va zo'ravonlik kabi huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida joriy etilganligi — aniq va tushunarli tarzda izohlanishi kerak.

Ko'rsatmalarda ko'tarilgan muhim masalalardan yana biri — bu bolalarning raqamli muhitdagi tajribalari haqidagi toifalangan ma'lumotlarni yig'ish va ulardan keyingi harakat yo'nalishlarini aniqlashda foydalanish bo'lib, bu ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Vakolatli organlar yoshga mos va gender xususiyatlarini hisobga olgan holda qulay, xavfsiz, maxfiy maslahat berish, hisobot berish va shikoyat qilish mexanizmlarini joriy etishlari lozim. Masalan, davlatlar bolalar xavfsizligini ta'minlash ishonch telefonlariga amalga oshiriladigan qo'ng'iroqlarni bepul qilish uchun telekommunikatsiya kompaniyalarini rag'batlantirishlari zarur. Hujjat so'nggida bolalarning axborotga oid huquqlarini himoya qilish bo'yicha hamkorlik masalasiga to'xtalib o'tilgan. Unda davlatlarning bolalar uchun qaysi kontent mos kelishini va qaysi kontent yaroqsiz hisoblanishini aniq belgilash

⁴ Vazirlar Qo'mitasining a'zo davlatlarga bolalarning raqamli muhitdagi huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalari (<https://rm.coe.int/handbook-for-policy-makers-on-the-rights-of-the-child-in-the-digital-e/1680a069f8>).

maqsadida mamlakatlararo, shuningdek turli manfaatdor tomonlar o'rtasida kontent tasniflashni yagona qoidalar asosida standartlashtirish zarurati alohida ta'kidlangan.

Endi esa O'zbekiston qonunchiligiga yuzlanadigan bo'lsak, tahlilni, avvalo, 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan boshlashimiz o'rinlidir. Xususan, Konstitutsiyamizning XIV bobi oila, bolalar va yoshlar masalasiga bag'ishlangan bo'lib, biz o'rganayotgan mavzu uchun muhim bo'lgan norma 78-moddada o'z aksini topgan. Unda aytilishicha, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.⁵Hozirda aynan mana shu konstitutsiyaviy qoidaning amalda tatbiq etilishi bir necha yil ilgari, ya'ni 2008-yilda kuchga kirgan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinib, ta'minlab kelinmoqda. Ushbu qonunning 16-moddasida bolaning axborot olish huquqi kafolatlari masalasi yoritilgan bo'lib, unda har bir bola o'zining sog'lig'iga, axloqiy va ma'naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborotni olish huquqiga ega ekani belgilab qo'yilgan.⁶Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, axborot olish huquqi, shu jumladan bolalarning axborot olish huquqi ham "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonunga ko'ra amalga oshiriladi. Ushbu qonunga muvofiq, har bir bolaning qonun ruxsat bergan doirada har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi kafolatlanadi. Shu bilan birga, bolalar o'rtasida pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, ularga zararli ta'sir ko'rsatuvchi hamda huquqbuzarliklar sodir

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/-6445145>).

⁶ Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun (<https://lex.uz/mact/-1297315>).

etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish va filmlarni namoyish etish taqiqlanadi, va bunday harakatlar uchun javobgarlik belgilangan.⁷ O'zbekiston bolalar huquqlarining xalqaro himoyasiga doir boshqa hujjatlarga ham qo'shilgan. Jumladan, Bola huquqlari himoyasi doirasida qurolli mojarolarda bolalarning ishtirokiga taalluqli Fakultativ Protokol, shuningdek, Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ Protokol (2000-yil 25-may, Nyu-York) O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalari tahlili

BMTning bola huquqlari bo'yicha asosiy hujjatida belgilangan qoidalarni amalda ro'yobga chiqarish uchun yo'lga qo'yilgan protsessual mexanizmlar va ularning ishlashi uchun davlatlar oldiga qo'yilgan majburiyatlar huquqni qo'llash amaliyoti asosi sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, bolalarning axborot huquqlarini himoya qilishda OAVlarning ishtiroki masalasi juda muhim bolib, bunda ayniqsa bolaning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy farovonligi, hamda sog'lom jismoniy va ruhiy rivojlanishiga xizmat qiladigan axborotlarga ustuvorlik berilishi lozim. Aynan shu maqsadda esa ishtirokchi-davlatlarga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

1. Ommaviy axborot vositalarini bolalar uchun foydali ijtimoiy va madaniy mazmundagi axborot hamda materiallarni tarqatishga rag'batlantirish;
2. Turli madaniy, milliy va xalqaro manbalardan axborot va materiallarni tayyorlash, almashish va tarqatish borasidagi xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;

⁷ Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risidagi qonun (<https://lex.uz/docs/-1319>).

3. Bolalar adabiyotini nashr qilish va keng tarqatishni rag'batlantirish;
4. Axborot vositalarining ozchilik guruhlariga yoki tub aholiga mansub bolalarning til ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratishini qo'llab-quvvatlash;
5. Bolaning farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan axborot va materiallardan uni himoya qilishga doir muhim prinsiplarni ishlab chiqishni rag'batlantirish.

Zamonaviy davlatlar qonunchiligida shubhasiz bu qoidalar belgilangan, ammo, shunga qaramay, yetarli tayyorgarlikning yo'qligi, axloqiy chigalliklar va yetarlicha yetkazib berishning bo'lmashligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa bolalar huquqlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish uchun OAV hamda targ'ibot sohasida doimiy islohotlar va sarmoya zarurligini ko'rsatadi.⁸

Uzluksiz texnologik innovatsiyalar natijasida raqamli muhitning qamrovi tobora kengayib bormoqda. Endilikda bu muhit nafaqat internet va ijtimoiy tarmoqlarni, balki kiyim-kechak, o'yinchoqlar, maishiy xizmatlar va boshqa kundalik mahsulotlarni ham o'z ichiga olmoqda. Bunday sharoitda davlatlardan raqamli tizimlar bilan bog'liq har qanday faoliyat yurituvchi institutlar — masalan, maktablar, kutubxonalar, sport va ko'ngilochar muassasalar, biznes binolari (shu jumladan do'konlar va kinoteatrlar) tomonidan ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik standartlariga qat'iy rioya etilishi talab etiladi. Raqamli muhit bolalarning shaxsiy hayoti bilan bog'liq yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, ota-onalar va vasiylar tomonidan bolalar xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularning onlayn faoliyatini kuzatuvchi texnologiyalar (masalan, geolokatsiya qurilmalari, smart-soatlar, onlayn nazorat xizmatlari)

⁸ (2025, August 1). A pathfinder in reporting children's issues. Business Day. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GD4-KF43-RS15-D3DS-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>.
SJIF: 5.051

bolaning shaxsiy hayot huquqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, hatto ularning axborot izlash va topish imkoniyatini cheklashi mumkin. BMTning Umumiy sharhida bu kabi muammolarning oldini olish uchun ishtirokchi-davlatlarga quyidagi vazifalar yuklangan:

- Raqamli muhitda bolalarning shaxsiy hayotini hurmat qilish va himoya qilishga doir yondashuvlarni ishlab chiqish;
- Ota-onalar, vasiylar hamda pedagoglar uchun raqamli xavfsizlik va maxfiylikni muvozanatli ta'minlovchi maslahatlar va tavsiyalar berish;
- Bolalarning xavfsizligi va daxlsizligi o'rtasidagi nozik muvozanatni ta'minlashga qaratilgan qonunchilik va amaliy mexanizmlarni joriy etish.

Bu choralar orqali bolalarning raqamli muhitdagi huquqlari — ayniqsa shaxsiy hayot daxlsizligi va axborot erkinligi huquqlari — samarali himoya qilinishi mumkin.

Quvonarlisi, dunyoning turli qismlarida bolaning axborotga bolgan huquqlarini himoya qilishda olg'a qadamlar tashlanmoqda. Misol uchun, yaqindagina Turkiya raqamli dunyoda bolalarni himoya qilish yo'lida muhim qadam tashladi — Prezident Rajab Toyyib Erdo'g'an "Raqamli bolalar huquqlari konvensiyasi"ni imzolaganini e'lon qildi. Vazirlar Mahkamasi yig'ilishidan so'ng qilgan nutqida Erdo'g'an bu tashabbusni "butun dunyo bolalari uchun mazmunli va qimmatli qadami" deb ta'rifladi. U yana shunday dedi: "Raqamli bolalar huquqlari konvensiyasi"ni imzolash orqali biz bu sohada global xabardorlik yaratishni maqsad qilganmiz. Barcha fuqarolarimizni, ayniqsa ota-onalarni, besh

tilda tayyorlangan ushbu hujjatni diqqat bilan o'qishga chaqiraman.”⁹ Bu jahon miqyosida bo'layotgan islohotlarning faqatgina bir qismidir.

XULOSA

Yuqorida ishlab chiqilgan himoya mexanizmlari, albatta, yuridik jihatdan bolalarning raqamli huquqlarini ta'minlashda muhim va ajralmas hisoblanadi. Biroq ularning real hayotda amalda ishlashi — bu alohida masala bo'lib, insonlar tomonidan bevosita amaliy chora-tadbirlarning ko'rilishi birinchi navbatdagi vazifa bo'lib qoladi. Jamiyat va uning har bir bo'g'ini bolalarning axborot va raqamli olamdagi huquqlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash yo'lida strategik yondashuvga ega bo'lishi lozim. Raqamli tarbiya siyosatini shakllantirish, zararli kontentni monitoring qilish va bloklash, axborot savodxonligini oshirish, shuningdek, virtual olamda xavfsizlikni ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining o'рни va ularni keng jalb etish masalalari ikki tomonlama — ya'ni inson va davlat hamkorligi doirasida amalga oshirilganidagina samarali natija beradi. Anna Morgan, Irlandiya Ma'lumotlarni himoya qilish komissiyasining yuridik masalalar bo'yicha rahbarining ta'kidlashicha, eng katta “shaffoflik muammosi” — bolalarni o'z shaxsiy ma'lumotlari qanday va nima sababdan ishlatilishini tushunishga qiziqtirishdir. U bu masalani faqat texnik emas, balki madaniy muammo sifatida ko'radi: bu chaqiriqni ma'lumotlarni himoya qilish organlari, siyosatchilar, ta'lim beruvchilar va ota-onalar birgalikda qabul qilishi kerak. Chunki aynan ular bolalar va yoshlarni ularning onlayn huquqlari hamda xavflari haqida xabardor qilishda muhim rol o'ynaydi. ¹⁰Albatta, bu borada oilaning, undagi muhit va shakllangan qarashlarning ijtimoiy ahamiyati beqiyos.

⁹ ANKARA. (2025, September 10). Türkiye adopts digital child rights convention to safeguard kids online. Hürriyet Daily News. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GPK-XS53-RV55-H0M7-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>.

¹⁰ Children and digital rights, Comms. L. 2018, 23(1), 1-3.

Oila — bu dastlabki axloq maktabi bo‘lib, uning turli institutlar va shaxslar (bog‘cha, maktab, mahalla, psixolog va hokazo) bilan hamkorligi axborot xavfsizligi va bolalarni himoya qilish borasida benihoyat muhimdir. Shuning uchun oiladagi muhit hamda unda beriladigan tarbiya bolalarning subyektiv va atrofdagilarga tegishli raqamli axborot sohasidagi va boshqa jabhalardagi huquq va majburiyatlarini anglashida yetakchi rol o‘ynaydi va hech qachon ahamiyatini yo‘qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Guest Columnists. (2023, June 16). Ensure that children are known, loved, protected in the digital age. The Daily Monitor. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a68GF-2GM1-JDJN-64F7-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>.
2. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya (<https://lex.uz/docs/-2595913>).
3. Bolalarning raqamli muhitdagi huquqlari bo‘yicha Umumiy sharh (<https://www.unicef.org/bulgaria/en/media/10596/file>).
4. Vazirlar Qo‘mitasining a‘zo davlatlarga bolalarning raqamli muhitdagi huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va ta‘minlash bo‘yicha ko‘rsatmalari (<https://rm.coe.int/handbook-for-policy-makers-on-the-rights-of-the-child-in-the-digital-e/1680a069f8>).
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/-6445145>).

6. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun
(<https://lex.uz/mact/-1297315>).

7. Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risidagi qonun
(<https://lex.uz/docs/-1319>).

8. (2025, August 1). A pathfinder in reporting children's issues. Business Day. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6GD4-KF43-RS15-D3DS-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>.

9. ANKARA. (2025, September 10). Türkiye adopts digital child rights convention to safeguard kids online. Hürriyet Daily.

10. Children and digital rights, Comms. L. 2018, 23(1), 1-3.